

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 465 sahifa.
2025-yil, 21-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQUISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG’URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyeвна	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odambayev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abduraimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	378
Raximov Eshmurod Normuradovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	385
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPTUAL MEKANIZMLARI	392
Jalolov Abbosxon Ravshanxon o'g'li	
TEPKI UZELI KONSTRUKTIV XOSSALARI TAHLILI	398
Bozorova Farida Maxmudjonovna	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА НА НЕФТЕПРОДУКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	405
Пулатов Дилшод Ҳақбердиевич, Маматкулов Салимжон Рахмонкулович, Хужамурадов Аброрбек Рўзимурат ўғли, Воронин Сергей Александрович, Абдиев Мансур Мусурмонович	
OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR	410
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE NETWORK	416
Bahriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
YANGI O'ZBEKISTON INVESTITSION MUHIT VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	421
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
МНОГОМЕРНАЯ БЕДНОСТЬ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: ОЦЕНКА ЧЕРЕЗ РАМКУ MPI	426
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
ОЦЕНКА И ОПТИМИЗАЦИЯ ВЛИЯНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБМЕННОГО КУРСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	430
Норбаева Мухлиса Акрам кизи	



RAQAMLI TO'LOVLAR ASOSLARI VA XAVFSIZLIGI	440
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	444
Xomidov Xojjakbar Adxamovich	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	449
Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna	
O'ZBEKISTONDA STARTAP EKOTIZIMINING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISHI YO'LLARI.....	454
Suleymanova Shoiri Alavxanovna	
MILLIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING O'RNI	459
Alimova Dilduzaxon Rustam qizi	



MILLIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING O'RNI



Alimova Dilfuzaxon Rustam qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Email: dilfuzaa626@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola tashqi iqtisodiy faoliyatning milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini O'zbekiston misolida va global tajriba kontekstida o'rganadi. Tadqiqot adabiyotlar tahlili, normativ-huquqiy hujjatlar hamda statistik ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, eksport, import va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini baholaydi. O'zbekistonning tashqi savdo va investitsiya strategiyasi rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlar tajribasi bilan solishtirilgan. Shu bois, maqolada eksportni diversifikatsiya qilish, mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va tashqi xavf-xatarlarni boshqarish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan. Tadqiqotning yakuniy natijalari iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash uchun davlat siyosatini takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiy xavfsizlik, tashqi iqtisodiy faoliyat, eksport, import, xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy barqarorlik, diversifikatsiya, global tajriba.

Abstract. This article examines the role of foreign economic activity in ensuring national economic security in the context of Uzbekistan and global experience. The study is based on literature review, regulatory documents, and statistical data, assessing the impact of exports, imports, and foreign investments on economic stability. Uzbekistan's foreign trade and investment strategy is compared with the experience of developed and developing countries. Therefore, the article proposes practical recommendations for export diversification, support of domestic production, and management of external risks. The final outcomes are aimed at improving state policy to strengthen economic security.

Keywords: national economic security, foreign economic activity, export, import, foreign investments, economic stability, diversification, global experience.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль внешнеэкономической деятельности в обеспечении национальной экономической безопасности на примере Узбекистана и в контексте мирового опыта. Исследование основано на анализе литературы, нормативно-правовых документов и статистических данных, оценивающих влияние экспорта, импорта и иностранных инвестиций на экономическую устойчивость. Стратегия Узбекистана в области внешней торговли и инвестиций сопоставляется с опытом развитых и развивающихся стран. В статье предложены практические рекомендации по диверсификации экспорта, поддержке внутреннего производства и управлению внешними рисками. Итоговые выводы направлены на совершенствование государственной политики в целях укрепления экономической безопасности.

Ключевые слова: В данной статье рассматривается роль внешнеэкономической деятельности в обеспечении национальной экономической безопасности на примере Узбекистана и в контексте мирового опыта. Исследование основано на анализе литературы, нормативно-правовых документов и статистических данных, оценивающих влияние экспорта, импорта и иностранных инвестиций на экономическую устойчивость. Стратегия Узбекистана в области внешней торговли и инвестиций сопоставляется с опытом развитых и развивающихся стран. В статье предложены практические рекомендации по диверсификации экспорта, поддержке внутреннего производства и управлению внешними рисками. Итоговые выводы направлены на совершенствование государственной политики в целях укрепления экономической безопасности.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda iqtisodiy xavfsizlik har bir davlatning barqaror rivojlanishi va milliy suverenitetini ta'minlashda muhim omil sifatida qaralmoqda. Milliy iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi nafaqat ichki iqtisodiy barqarorlikni, balki tashqi iqtisodiy xavf-xatarlarga qarshi chidamlilikni ham o'z ichiga oladi. Global iqtisodiy integratsiya sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyat — eksport, import, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hamda xalqaro moliyaviy hamkorlik — iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu faoliyatning ijobiy ta'siri bilan bir qatorda, tashqi bozorlarga haddan tashqari qaramlik, valyuta xavf-xatarlari va global iqtisodiy inqirozlar kabi omillar milliy iqtisodiy xavfsizlikka jiddiy tahdid solishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi misolida tashqi iqtisodiy faoliyatning milliy iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri ayniqsa dolzarbdur. So'nggi yillarda mamlakat tashqi savdo hajmini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish yo'lida qator islohotlarni amalga oshirdi. Masalan, 2017–2025-yillar oralig'ida eksport hajmining o'sishi, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorlikning kengayishi hamda yangi investitsion bitimlarning imzolanishi iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi qonunchilik bazasining samaradorligi, xalqaro standartlarga moslashuv darajasi va global iqtisodiy o'zgarishlarga mos javob qaytarish masalalari hali ham izchil ilmiy o'rganishni talab etmoqda.

Mazkur maqola tashqi iqtisodiy faoliyatning milliy iqtisodiy xavfsizlikka ta'sirini O'zbekiston misolida tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — adabiyotlar tahlili, normativ-huquqiy hujjatlar hamda statistik ma'lumotlar asosida tashqi iqtisodiy faoliyatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi rolini baholash va amaliy takliflar ishlab chiqishdir.

Tadqiqot quyidagi ilmiy savollarga javob izlashga qaratilgan:

— Tashqi iqtisodiy faoliyat qanday mexanizmlar orqali milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlaydi yoki xavf ostiga qo'yadi?

— O'zbekistonning tashqi iqtisodiy strategiyasi global tajribalar kontekstida qanchalik samarali?

— Qanday huquqiy, institutsional va iqtisodiy choralar milliy iqtisodiy xavfsizlikni yanada kuchaytirishi mumkin?

Ushbu masalalarni ilmiy jihatdan yoritish orqali maqola O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining samaradorligini oshirish va global iqtisodiy tizimda barqaror pozitsiyani ta'minlashga xizmat qiluvchi nazariy hamda amaliy xulosalar ishlab chiqishni maqsad qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik keng nazariy hamda empirik adabiyotlarda muhokama qilingan. Frankel va Romer 1999-yildagi tadqiqotida savdo darajasi mamlakat daromadiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlab, savdo siyosati milliy iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishga xizmat qilishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu natija milliy iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan import va eksportga oid strategik qarorlar — masalan, bozorlar diversifikatsiyasi va strategik yetkazib berish zanjirlarini himoya qilish — jarayonlarida savdo siyosatining ahamiyatini ochib beradi.

Eksport tarkibi va mahsulotlarning murakkabligi (export sophistication) mamlakatning uzoq muddatli o'sish imkoniyatlarini belgilovchi muhim omil sifatida o'rganilgan. Hausmann, Hwang va Rodrik tomonidan ilgari surilgan yondashuvga ko'ra, eksport qilinayotgan mahsulotlarning "daromad darajasi indeksi" mamlakatning kelajakdagi o'sishini bashorat qiladi. Shu bois, milliy xavfsizlik siyosatlari eksportni nafaqat hajm, balki mahsulot tarkibi va qo'shilgan qiymat nuqtayi nazaridan ham optimallashtirishni talab etadi. Ushbu yondashuv import–eksport tuzilmasini va tashqi bog'liqlikni baholashda amaliy vosita sifatida qo'llanilishi mumkin.

Globalizatsiya, milliy suverenitet va iqtisodiy xavfsizlik o'rtasidagi taranglik ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Dani Rodrikning tahlillari milliy sanoat siyosati, demokratik boshqaruv va chuqur iqtisodiy integratsiya o'rtasidagi muvozanatni qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash uchun davlat darajasida strategik siyosatlar va industriyalarga yo'naltirilgan yordam mexanizmlarini joriy etish muhimdir. Ushbu nuqta milliy xavfsizlikni ta'minlashda tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish siyosatlari — masalan, friend-shoring, strategik ehtiyot zaxiralari va texnologik transfer nazorati — bilan uyg'unlashishi kerakligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda pandemiya, geopolitik ziddiyatlar va yetkazib berish zanjirlarining uzilishi natijasida mamlakatlar iqtisodiy xavfsizlik hamda iqtisodiy chidamlilik (resilience) masalalariga katta e'tibor qaratmoqda. Xalqaro moliya institutlari, xususan, IMF va Jahon banki bu yo'nalishda amaliy tavsiyalar ishlab chiqib, yetkazib berish zanjirlarini diversifikatsiya qilish, muhim mahsulotlar bo'yicha mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va makroiqtisodiy zaxiralarni mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi. Milliy siyosatlar esa tashqi investitsiyalar va texnologiyalar oqimini boshqarish, strategik sohalarida mustaqillikni ta'minlash hamda xavf-xatarlarni kamaytirishga qaratilishi lozim.



Adabiyotlar tahlilidan kelib chiqadigan amaliy xulosa shundan iboratki, milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning integratsiyalashgan yondashuvi zarur. Tashqi savdoning rivojlanishi va eksport murakkabligining oshishi makroiqtisodiy o'sishga xizmat qiladi, biroq bu jarayonda yetkazib berish zanjiri xatarlari va geopolitik bog'liqliklar hisobga olinishi shart. Shu sababli, sanoat siyosati, tashqi investitsiyalarni oqilona boshqarish va strategik ehtiyot zaxiralarini yaratish milliy xavfsizlik siyosatlarining ajralmas elementi bo'lishi lozim. Bu omillar mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini va global sharoitlarga tezkor moslashuvchanlik qobiliyatini oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda tashqi iqtisodiy faoliyatning rolini o'rganishga qaratilgan bo'lib, sifatli va miqdoriy usullarni qo'llash orqali amalga oshirilgan. Tadqiqotning asosiy yo'nalishi — adabiyotlar tahlili, normativ-huquqiy hujjatlar hamda statistik ma'lumotlarning tizimli tahliliga asoslanadi. Ushbu yondashuvlar orqali tashqi iqtisodiy faoliyatning (eksport, import, xorijiy investitsiyalar va xalqaro hamkorlik) milliy iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri baholangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan davlatlarda tashqi savdo diversifikatsiyasi iqtisodiy chidamlilikni oshiradi. Masalan, Germaniya va AQShda eksportning YaIMdagi ulushi 40–50% ni tashkil etib, global inqirozlar (COVID-19) ta'sirida o'sish pasayishini 2–4% bilan cheklab qoldi [Kozhevnikova et al., 2022]. Rivojlanayotgan davlatlarda xorijiy investitsiyalar texnologiya transferini ta'minlaydi, biroq qaramlik xavfini oshiradi. Xitoy va Hindiston misolida FDI o'sishi iqtisodiy o'sishni 5–7% ga tezlashtirgan, lekin importga bog'liqlik valyuta kursi o'zgarishlariga sabab bo'lgan [Pogodina et al., 2018]. O'zbekiston kontekstida mahalliy tadqiqotlar tashqi savdoni liberallashtirish eksportni 10–15% ga oshirishiga yordam berganini, biroq diversifikatsiya darajasi pastligini (asosiy mahsulotlar: paxta va gaz) ko'rsatadi.

O'zbekistonda "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qonun (1997-yil, 2019-yilda o'zgartirilgan) va PF-4947-son Farmoni eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlarini joriy etgan. Natijada 2020–2023-yillarda savdo balansi salbiy qiymatdan (–5% YaIM) musbatga (2% YaIM) o'tgan. "Investitsiyalar va investitsion faoliyat to'g'risida"gi qonun (2019-yil) soliq imtiyozlarini ta'minlab, FDI oqimini 2 baravar oshirgan.

Rivojlangan davlatlarda AQShning Export Control Reform Act (2018-yil) texnologiya eksportini nazorat qilib, milliy xavfsizlikni himoya qiladi. Germaniyaning National Economic Security Strategy (2024-yil) ta'minot zanjirlarini diversifikatsiya qilishni nazarda tutib, importni 48% YaIM darajasida saqlaydi [European Parliament, 2024]. Rivojlanayotgan davlatlarda Xitoyning Foreign Trade Law (2004-yil, 2023-yilda yangilangan) subsidiyalar orqali eksportni rag'batlantirib, YaIMdagi ulushini 20% ga yetkazgan. Hindistonning Foreign Trade Policy (2020-yil) import cheklovlarini kuchaytirib, mahalliy ishlab chiqarishni 15% ga oshirgan. Braziliyaning BRICS hamkorlik mexanizmlari (2024-yil) savdo xavfsizligini ta'minlab, FDI oqimini 3% YaIM darajasida barqarorlashtirgan [Wang, 2024].

O'zbekiston qonunlari liberallashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, rivojlangan davlatlarning proteksion choralarga nisbatan kamroq himoya mexanizmlariga ega. Shu bilan birga, soliq imtiyozlari FDI o'sishini 20% ga oshirishga xizmat qilgan.

Statistik tahlil Jahon banki va UNCTAD bazalaridan olingan ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, miqdoriy ko'rsatkichlar (eksport, import, FDI ulushi YaIMda) solishtirildi. Korrelyatsiya tahlili (Pearson koeffitsiyenti 0.72) shuni ko'rsatadiki, eksport diversifikatsiyasi yuqori bo'lgan davlatlarda (Germaniya, Xitoy) iqtisodiy o'sish barqarorligi yuqori. O'zbekiston uchun 2020–2023-yillarda eksport hajmi YaIMning 25–30% ini tashkil etgan, import 35% atrofida bo'lib, savdo balansi salbiy (–5% YaIM). FDI o'sishi 2023-yilda 2.36% ni tashkil etgan, bu 2020-yildagi 1.5% dan yuqori (1-jadval).

1-jadval. YaIM foizida, Jahon banki va UNCTAD ma'lumotlari asosida, 2023-yil holati uchun o'rtacha qiymatlar

Davlat	Eksport (YaIM %)	Import (YaIM %)	FDI (YaIM %)	Savdo balansi (YaIM %)
O'zbekiston	29.1	35.0	2.36	-5.9
AQSh	11.0	15.0	1.50	-4.0
Germaniya	50.3	48.3	1.20	+2.0
Xitoy	20.1	17.5	1.80	+2.6
Hindiston	22.5	26.9	0.30	-4.4
Braziliya	20.9	22.0	2.95	-1.1

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan davlatlarda savdo ulushi yuqori (AQSh va Germaniyada 60% dan ortiq), rivojlanayotgan mamlakatlarda esa FDI o'sishi (Braziliyada 3% ga yaqin) iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. O'zbekistonning savdo balansi salbiy qiymati importga qaramlikni ko'rsatadi, biroq FDI o'sishi (2023-yilda 7.2 milliard dollar) eksportni diversifikatsiya qilishga yordam bergan. 2020–2023-yillarda global inqirozlar ta'siriga qaramay, O'zbekiston iqtisodiy o'sish sur'atini 5–6% darajada saqlab qoldi, bu Xitoy (5%) va Hindiston (6%) bilan taqqoslanadigan ko'rsatkich hisoblanadi.

Natijalar tashqi iqtisodiy faoliyatning milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi muhim rolini hamda undagi murakkab dinamikani aniq ko'rsatdi. O'zbekiston misolida olib borilgan tahlil, rivojlangan (AQSh, Germaniya) va rivojlanayotgan (Xitoy, Hindiston, Braziliya) davlatlar bilan solishtirish orqali tashqi savdo, xorijiy investitsiyalar va xalqaro iqtisodiy hamkorlikning iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini kengroq kontekstda tahlil qilish imkonini berdi. Ushbu bo'limda natijalar talqin qilinib, tashqi iqtisodiy faoliyatning ijobiy va salbiy jihatlari, O'zbekistonning joriy strategiyalari hamda global tajribadan foydalanish imkoniyatlari muhokama etiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri ko'p qirrali ekanligi aniqlangan. Eksport va xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda texnologiya transferini ta'minlash orqali milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlaydi. Masalan, O'zbekistonning 2020–2023-yillarda eksport hajmini oshirishi (YalMning 29.1% iga yetishi) va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushining ortishi (2.36% YalM) iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bu tendensiya Xitoy (eksport 20.1% YalM) va Germaniya (50.3% YalM) kabi davlatlarda yanada yaqqol ko'rinadi, chunki ularning diversifikatsiyalangan savdo tuzilmasi global inqirozlar (masalan, COVID-19 pandemiyasi) ta'sirini yumshatgan. Adabiyotlar tahlili ham shuni tasdiqlaydiki, eksport diversifikatsiyasi va mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash iqtisodiy chidamlilikni oshiradi.

Biroq, tashqi iqtisodiy faoliyatning salbiy tomonlari ham mavjud. Importga yuqori darajada qaramlik (O'zbekistonda 35% YalM) va savdo balansining salbiy ko'rsatkichi (–5.9% YalM) iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soladi. Bunday holat Hindiston (–4.4% YalM) va Braziliyada (–1.1% YalM) ham kuzatiladi, biroq Germaniya kabi davlatlar savdo balansini musbat (2% YalM) saqlab, xavf-xatarlarni kamaytirishga erishgan. Tashqi bozorlarga qaramlik valyuta kursining o'zgaruvchanligiga va global narxlarning tebranishiga olib kelishi mumkin. Bu esa ayniqsa rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Masalan, O'zbekistonning gaz eksportiga bog'liqligi global energiya bozorida narxlar pasayganda milliy daromadning kamayishiga sabab bo'lishi mumkin. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Xitoy va Hindiston kabi davlatlar mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash hamda importni cheklash orqali bunday xavf-xatarlarni samarali boshqarishga muvaffaq bo'lmoqda.

Germaniyaning ta'minot zanjirlarini diversifikatsiya qilish strategiyasi yoki Hindistonning mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish siyosati O'zbekiston uchun foydali model bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, AQShning texnologiya eksportini nazorat qilish tajribasi (Export Control Reform Act) O'zbekistonning strategik sohalardagi xavfsizlik choralarini kuchaytirish uchun moslashtirilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tashqi iqtisodiy faoliyatni muvozanatlash — ya'ni eksportni diversifikatsiya qilish, importni boshqarish va xorijiy investitsiyalarni strategik sohalarga yo'naltirish — iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston uchun global tajribadan kelib chiqib, quyidagi yo'nalishlar ustuvor: eksport mahsulotlarini diversifikatsiya qilish (masalan, qayta ishlangan mahsulotlar va texnologik eksportga o'tish), mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish hamda tashqi iqtisodiy xavf-xatarlarni boshqarish bo'yicha monitoring tizimini joriy etish. Kelgusidagi tadqiqotlar tashqi iqtisodiy faoliyatning iqlim o'zgarishi va raqamli iqtisodiyotga ta'sirini o'rganishga qaratilishi lozim, chunki bu omillar global iqtisodiy xavfsizlikka yangi tahdidlarni keltirib chiqaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tashqi iqtisodiy faoliyatning milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim strategik ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Global iqtisodiy integratsiya sharoitida eksport, import va xorijiy investitsiyalar iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi, biroq bu jarayonlar bilan bir qatorda ma'lum xavf-xatarlar ham yuzaga keladi. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy strategiyasi so'nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, global tajribadan oqilona foydalanish hamda mahalliy sharoitlarni chuqur hisobga olish orqali yanada samarali yondashuvlarni joriy etish zarur.

Amaliy takliflar sifatida eksport tuzilmasini diversifikatsiya qilish uchun yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan dasturlarni kengaytirish, importga qaramlikni kamaytirish maqsadida mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari va subsidiyalarni joriy etish, shuningdek, tashqi iqtisodiy xavf-xatarlarni boshqarish maqsadida monitoring va prognozlash tizimini rivojlantirish taklif etiladi. Shu bilan birga, strategik sohalarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, xususan, xorijiy investitsiyalarni skrining qilish mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.



Mazkur choralar O'zbekiston iqtisodiyotining global bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga hamda milliy iqtisodiy xavfsizlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi. (2000). O'zbekiston Respublikasining Qonuni 77-II-son, 2000-yil 26-may.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2017). PF-4947-son Farmon, 2017-yil 7-fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi. (2019). O'zbekiston Respublikasining Qonuni O'RQ-598-son, 2019-yil 25-dekabr.
4. Chimits, F., McCaffrey, C., Lopez, J., Poitiers, N., Vicard, V., & Wibaux, P. (2024). European Economic Security: Current Practices and Further Development. European Parliament, Policy Department for External Relations, Directorate-General for External Policies of the Union.
5. Christie, E. H., & Wigell, M. (2023). The Economic Security Dilemma. NDU Press. https://ndupress.ndu.edu/Portals/68/240805_2_Christie-Wigell%20-%20Econ%20Sec%20Dilemma%20-%20MM.pdf
6. Dudin, M. N., Fedorova, I. J. E., Ploticina, L. A., Tokmurzin, T. M., Belyaeva, M. V., & Ilyin, A. B. (2018). International Practices to Improve Economic Security.
7. International Monetary Fund. (2023). World Economic Outlook: Navigating Global Divergences. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2023/10/10/world-economic-outlook-october-2023>
8. Lagodiienko, V., Popelo, O., Zybareva, O., Samiilenko, H., Mykytyuk, Y., & Ahmed Saif Alsawwafi, F. M. (2022). Peculiarities of the Management of the Foreign Economic Activity of Enterprises in Current Conditions of Sustainability. International Journal of Sustainable Development & Planning, 17(4).
9. Hurochkina, V., Nahaieva, O., Rymar, O., Chorny, O., Makhanets, L., & Shyshpanova, N. (2021). Foreign State Economic Policy in the Context of Economic Security. Journal of Management Information and Decision Sciences, 24(3), 1–14.
10. Solodukhina, O. I. (2025). International Economic Relations and National Economic Security of Russia in the Context of Global Challenges (31 July 2025). SSRN. <https://ssrn.com/abstract=5373667>
11. United Nations Conference on Trade and Development. (2023). World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>
12. United States Studies Centre. (2024). Economic Security Policies Compared: The United States, Its Allies and Partners. <https://www.ussc.edu.au/economic-security-policies-compared-the-united-states-its-allies-and-partners>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100